
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI NOVIKOV ILYOS VALERIYEVICHNING 18
NOYABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN
KUN MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Assalomu-alaykum qadrli tumandoshlar!

Avvalom bor barchangizni O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan chin dildan muborakbod etaman.

Davlat bayrog'i – mamlakat davlat suverenitetining ramzi hisoblanib, u yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O'zbekiston davlati borligini anglatadi va o'zida milliy-madaniy an'analarimizni mujassamlashtiradi.

Bayrog'imiz o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni mujassam etgan.

Milliy bayrog'imizning hilpirab turishi, turli bayram va tantanalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi.

Milliy bayrog'imiz mamlakatimizning mustaqilligini ifodalovchi muqaddas belgidir. U xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, tinch va osoyishta, ozod va erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimizni ifoda etadi.

Yurt bayrog'ini yov qo'lga topshirishni istamagan Najmiddin Kubro uni qo'lida mahkam tutgancha jon bergan edi. Tug'ini jonidan ortiq asragan To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi o'nlab sarkardalar hayoti ham bugun avlodlarimizga katta ibrat. Aslida Vatan bayrog'ini ko'zga surtish, uni to'tiyo qilish Vatanni sevish, uning uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lish deganidir.

Mustaqil davlatimiz bayrog'i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimiz timsolidir. Davlat ramzlarining muqaddasligini, ular bizga yurt manfaati har nedan ustunligini anglatib, eslatib turishini har birimiz yodda tutishimiz shart.

Bayrog'imizning balandligi yurtimizning obro'-nufuzi yuksakligidan dalolatdir. Shunday ekan, sarbaland qaddimiz va qadrimiz timsolini hamisha e'zozlaylik va boshimiz uzra baland ko'taraylik!

Aziz do'stlar!

Siz azizlarni yana bir bor O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan chin dildan muborakbod etaman!

2022-11-30 13:25:46